

PAST DAROMADLI DAVLATLAR UCHUN YASHIL O'SISH DOLZARBMI?

(Edward B. Barbierning tahliliy yondashuvi asosida)

Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li

PhD tadqiqotchisi, o'qituvchi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: k.nuriddinov@tsue.uz

Kirish

So'nggi o'n yillikda "yashil o'sish" konsepsiyasi global iqtisodiy siyosatda muhim o'rin egallay boshladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sishning ekologik cheklovlar sharoitida ham davom etishi, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq ushbu modelni daromadi past davlatlar sharoitida qo'llash bo'yicha jiddiy savollar mavjud: yashil o'sish dastlabki bosqichda xarajatlarni oshirmaydimi? Bu jarayon kambag'al aholining farovonligiga qanday ta'sir qiladi? Taraqqiyotga to'sqinlik qilmaydimi?

Edward B. Barbierning tadqiqotida ushbu savollarga javob izlanadi hamda yashil o'sish iqtisodiyoti past daromadli davlatlar uchun nafaqat dolzarb, balki zarur strategiya ekani ilmiy asoslanadi [1]. Chunki bunday mamlakatlar iqtisodiy o'sishni asosan tabiiy resurslarga tayanib ta'minlaydi, ammo aynan o'sha resurslarning degradatsiyasi iqtisodiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi. Shuningdek, aholining katta qismi chekka va imkoniyatlari cheklangan hududlarda istiqomat qilishi ekologik va geografik "qashshoqlik tuzoqlari"ni kuchaytiradi.

Barbier ta'kidlaydi: agar yashil o'sish samarali bo'lishi kerak bo'lsa, u faqat ekologik maqsadlarga emas, balki iqtisodiy diversifikatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qishloq hududlarining bozorga integratsiyasi orqali keng qamrovli ijtimoiy natijalarga yo'naltirilishi lozim. Demak, yashil o'sish — bu resurslarga boy, lekin past daromadli iqtisodiyotlar uchun barqaror rivojlanishning yagona yo'li sifatida qaralishi mumkin.

Ushbu tezisda Barbierning analitik yondashuvi asosida yashil o'sishning past daromadli mamlakatlarda qo'llanilish istiqbollari yoritiladi. Shuningdek, mavjud ilmiy natijalar O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida yashil o'sish tamoyillarining ahamiyati bilan bog'lab tahlil qilinadi. Bu esa global nazariyani milliy kontekst bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi

Yashil o'sish konsepsiyasi xalqaro ilmiy hamjamiyatda barqaror rivojlanishning ekologik va iqtisodiy maqsadlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda. OECD tomonidan ishlab chiqilgan "green growth" ta'rifi bo'yicha, iqtisodiy o'sish atrof-muhitning degradatsiyasini kuchaytirmagan holda

davom etishi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi va ekologik xavflarni kamaytirishi lozim [2]. Bunda yashil texnologiyalar, toza energiya manbalari, ekologik standartlar va innovatsiyalar asosiy drayverlar sifatida qaraladi.

Barbier tadqiqotlarida yashil o'sish ayniqsa tabiiy resurslarga tayanadigan past daromadli davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi [1]. Chunki bunday iqtisodiyotlarda asosiy boylik manbai bo'lgan yer, suv va o'rmon resurslarining yemirilishi iqtisodiy o'sishning o'zini-o'zi inkor etishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, birlamchi mahsulotlar eksportiga qaramlik yuqori bo'lgan mamlakatlar global bozor tebranishlariga nisbatan sezgir bo'ladi, bu esa iqtisodiy beqarorlikka zamin yaratadi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarda qayd etilishicha, past daromadli mamlakatlarda aholining katta qismi qishloq hududlarida yashaydi va imkoniyatlari cheklangan yer resurslariga bog'langan holda faoliyat yuritadi [3]. Bu holat "geografik qashshoqlik tuzoqlari"ni shakllantirib, mehnat unumdorligi va daromadlar o'sishini to'sib qo'yadi. Shunday sharoitda yashil o'sish siyosatining asosiy yo'nalishlari qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil o'sish modeli faqat ekologik muammolarni yumshatish vositasi bo'lmay, balki iqtisodiy tuzilishni modernizatsiya qilish va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun ham zarur omil hisoblanadi. Shu sababli, Barbier ilgari surgan yondashuv yashil o'sishni kengroq iqtisodiy transformatsiyaning ayrilmas tarkibiy qismi sifatida ko'radi.

Metodologik yondashuv

Ushbu tadqiqotda Edward B. Barbier tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy yondashuv konseptual asos sifatida qabul qilindi. Barbierning tadqiqoti past daromadli mamlakatlarda yashil o'sishning dolzarbligini baholashda institutsional-tahliliy uslubga tayanadi hamda iqtisodiy rivojlanishning ikki asosiy omiliga e'tibor qaratadi:

1. tabiiy resurslarga yuqori darajada tayanish;
2. qishloq hududlaridagi geografik va ijtimoiy cheklovlar mavjudligi [1].

Metodik yondashuvda quyidagi analitik yo'nalishlar qo'llanildi:

- Tarkibiy tahlil — iqtisodiy o'sish va resurslardan foydalanish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- Kambag'allik xaritalash yondashuvi — aholi joylashuvi va infratuzilma cheklovlari salbiy oqibatlarini baholash;
- Konseptual qiyoslash — yashil o'sishning muvaffaqiyat omillarini xalqaro tajribalar bilan solishtirish.

Barbierning konseptida empirik dalillar xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari: Jahon banki, OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va BMT hisobotlari hamda tadqiqotlarda

qayd etilgan statistik ko'rsatkichlar orqali asoslanadi [2; 3]. Ushbu tadqiqotda mazkur manbalardagi umumiy metodologik asoslar ham qiyosiy tahlil uchun qo'llanildi.

Shuningdek, O'zbekiston konteksti uchun ushbu modelning qo'llanish imkoniyatlari alohida ko'rib chiqildi. Bunda milliy iqtisodiyotning resurslarga tayanish darajasi, aholi tarkibi, hududlararo iqtisodiy tafovutlar va yashil siyosatning amaldagi holati bo'yicha ochiq manbalar asosida analitik yondashuv qo'llanildi. Bu esa nafaqat Barbier modelining nazariy jihatlarini, balki uning amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari va muhokama

Barbier tomonidan ta'kidlanganidek, past daromadli davlatlarda iqtisodiy o'sish ko'pincha birlamchi resurslarga haddan tashqari tayanish orqali ta'minlanadi [1]. Xomashyo mahsulotlari eksporti qisqa muddatli daromad manbai bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy beqarorlik va resurslar degradatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli, diversifikatsiya darajasining pastligi yashil o'sish siyosatining samaradorligiga jiddiy to'siq bo'lib qoladi.

Quyidagi jadval turli daromad guruhidagi mamlakatlarda eksport tuzilishi, diversifikatsiya indeksi, va ularning yashil rivojlanishga ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

Jadval 1.

Eksport tarkibining birlamchi mahsulotlarga qaramligi va diversifikatsiya darajasi	Mamlakat turi	Eksportda birlamchi mahsulotlar ulushi (%)	Diversifikatsiya indeksi	Iqtisodiy xatar	Yashil o'sish uchun oqibat
Past daromadli mamlakatlar	Juda yuqori	Past	Bozor	tebranishlariga sezgir	Yashil investitsiyalar sust
O'rta daromadli mamlakatlar	O'rta	O'rta	Barqaror emas	Transformatsiya	uchun potensial
Yuqori daromadli mamlakatlar	Past	Yuqori	Past	Innovatsion	yashil o'sish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksport diversifikatsiyasi oshgan sari iqtisodiy xavflar kamayadi va yashil texnologiyalarga o'tish uchun mustahkam asos paydo bo'ladi. Past daromadli mamlakatlarda esa bozorning xomashyo narxlariga qaramligi oqibatida:

- yashil investitsiyalar oqimi sustlashadi,
- iqtisodiy o'sish ekologik jihatdan beqaror bo'ladi,
- ijtimoiy tengsizlik kuchayadi.

Shu bois Barbier yashil o'sishni faqat ekologik maqsad emas, balki iqtisodiy transformatsiya quroli sifatida ko'radi. Aks holda, bunday davlatlar "resurs qaramligi — kambag'allik — ekologik degradatsiya" doirasida qolib ketadi.

Ushbu model O'zbekiston uchun ham dolzarbdir: mamlakat eksportining sezilarli ulushi hanuzgacha tabiiy resurslarga tayanadi. Bu holat yashil iqtisodiy siyosat bilan birgalikda sanoatni diversifikatsiya qilish, qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zaruratini kuchaytiradi.

O'zbekiston bilan bog'liq tahliliy izoh

Barbier tomonidan qayd etilgan ushbu ikki asosiy tarkibiy cheklov — resurslarga haddan tashqari tayanish va geografik qashshoqlik tuzog'i — O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham xosdir. Mamlakat eksportining sezilarli qismi energiya resurslari (neft, tabiiy gaz), oltin va boshqa birlamchi mahsulotlar hisobiga shakllanadi. Masalan, 2025-yilda tabiiy gaz eksportidan olingan daromad 624,1 mln AQSh dollarini tashkil etgani eksport tarkibida xomashyo mahsulotlarining hanuz ustunligini tasdiqlaydi [5]. Shu bois eksport tuzilmasida qayta ishlangan mahsulotlar ulushi oshib borayotganiga qaramay, resurslarga qaramlik iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiradi va yashil o'sish siyosatining moliyaviy barqarorligini cheklaydi.

Shuningdek, aholining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning muhim qismi kam qulaylikka ega agrar yerlarda yoki bozorlarga nisbatan uzoq hududlarda joylashgan, bu esa agroekologik salohiyatning pastligi va bozorga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Mazkur sharoitlar geografik qashshoqlik tuzog'ining shakllanishiga xizmat qiladi; ya'ni, iqtisodiy imkoniyatlar va infratuzilma yomon bo'lgan hududlarda kambag'allikdan chiqish jarayoni sekinlashadi [6].

Demak, O'zbekiston uchun yashil o'sish strategiyasi quyidagi maqsadlarga hamohang bo'lishi lozim:

- Eksportni diversifikatsiya qilish: xomashyo o'rniga yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirish.
- Hududlararo tenglikni oshirish: chekka qishloq hududlariga yo'l, energetika va raqamli infratuzilmani olib kirish.
- Innovatsion ekotexnologiyalarni joriy etish: suv tejovchi va energiya samaradorligini oshiruvchi ishlab chiqarish tizimlariga investitsiya kiritish.
- Yashil investitsiyalarni rag'batlantirish: huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni kuchaytirish orqali xususiy sektorni jalb etish.

Agar ushbu yondashuvlar uyg'unlashtirilsa, yashil o'sish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik barqarorlikni, balki uzoq muddatli iqtisodiy modernizatsiyani ham ta'minlaydi [7]. Bu bilan mamlakat Barbier ta'kidlaganidek, resurs qaramligi tuzog'idan chiqib, inklyuziv o'sish modeliga o'ta oladi.

Xulosa va tavsiyalar

Barbierning analitik yondashuvi shuni ko'rsatadiki, yashil o'sish past daromadli davlatlar uchun ham dolzarb va zarur strategik yo'nalish hisoblanadi. Chunki bunday mamlakatlarda iqtisodiy o'sish asosan tabiiy resurslarga tayanadi va bu resurslarning degradatsiyasi iqtisodiy barqarorlikka bevosita xavf tug'diradi [1]. Shu bilan birga, aholining muhim qismi chekka qishloq hududlarida yashashi "geografik qashshoqlik tuzog'i"ni kuchaytiradi, bu esa yashil iqtisodiy transformatsiyaning ijtimoiy bazasini zaiflashtiradi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, eksportda birlamchi mahsulotlar ulushining yuqoriligi iqtisodiy xatarlarga sabab bo'ladi va diversifikatsiya past bo'lgan sharoitda yashil investitsiyalar oqimi cheklangan bo'ladi. Aksincha, iqtisodiy diversifikatsiya yuqori bo'lganda yashil texnologiyalarni joriy etish va innovatsion o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyatlar kengayadi. Demak, yashil o'sish siyosati ekologik choralar bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy tuzilmani isloh qilishga, infratuzilmani rivojlantirishga va kambag'allikni kamaytirishga yo'naltirilishi lozim.

O'zbekiston misolida ham ushbu yondashuvning dolzarbligi yaqqol bo'lib turibdi. Mamlakat eksport tuzilmasi hanuzgacha tabiiy resurslarga tayanadi, chekka hududlarda ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan, yashil texnologiyalarga o'tish esa moliyaviy va institutsional rag'batlarni talab qiladi. Shu sababli, O'zbekistonda yashil o'sish siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Eksportni diversifikatsiya qilish – yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish.
2. Qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish – energetika, logistika va raqamli aloqadorlikni kuchaytirish orqali geografik qashshoqlikni yumshatish.
3. Yashil texnologiyalarni joriy etish – suv va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni kengaytirish.
4. Xususiy sektorni jalb etish – “yashil moliyalashtirish” instrumentlari va soliq rag'batlari orqali.
5. Aholining yashil ko'nikmalarini rivojlantirish – kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari orqali transformatsiyani tezlashtirish.

Shunday qilib, yashil o'sish siyosati O'zbekiston uchun nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy farovonlikni oshirishning ham muhim omili bo'la oladi. Barbier ta'kidlaganidek, ushbu strategiya resurslarga qaramlik va kambag'allikni bartaraf etishga xizmat qilishi kerak, shundagina yashil iqtisodiyot iqtisodiy transformatsiyaning barqaror harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barbier E.B. Is Green Growth Relevant for Poor Economies? : Working Paper P144 / E.B. Barbier. — Clermont-Ferrand : FERDI, 2015. — 41 p. —
URL: <https://ferdi.fr/dl/df-9YpSggBpToy9PGHg3pZp3CKS/ferdi-p144-is-green-growth-relevant-for-poor-economies.pdf> (olingan sana: 18.10.2025)
2. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). Towards Green Growth / OECD. — Paris : OECD Publishing, 2011. — 240 p. —



URL:

https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2011/05/towards-green-growth_g1g1342a/9789264111318-en.pdf (olingan sana: 22.11.2025)

3. UNEP (United Nations Environment Programme). Green Economy Report: A Brief for Policymakers / UNEP. — Nairobi : UNEP, 2010. —

URL:

https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/126GER_synthesis_en.pdf (olingan sana: 07.12.2025)

4. UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development). The State of Commodity Dependence 2025 : report. — Geneva : United Nations, 2025. — 120 p.

URL: <https://unctad.org/publication/state-commodity-dependence-2025>

(olingan sana: 16.09.2025).

5. Uzbekistan Exports — Trading Economics; Gazeta.uz. Экспорт природного газа из Узбекистана за январь–ноябрь 2025 года составил \$624,1 млн.

URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2025/12/29/gas-export-import/> (olingan sana: 27.11.2025).

6. World Bank. Geographical poverty traps in rural areas: A growing global problem / World Bank Blogs. — Washington, DC : World Bank, 2015.

URL: <https://blogs.worldbank.org/en/developmenttalk/geographical-poverty-traps-rural-areas-growing-global-problem> (olingan sana: 08.12.2025).

7. Invest in Uzbekistan — Investment Guide 2025. — Toshkent : Invest.uz, 2025. — 120b.

URL: <https://invest.gov.uz/uploads/investment-guide/invest-guide.pdf> (olingan sana: 03.08.2025).